


**“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining
2025-yil 20-oktabrdagi
5-sonli yig‘ilish bayonnomasiga
4 -ilova**



**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizom" (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom "Open bank" aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi maqomini va faoliyat yuritishini belgilaydi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga va Bank Ustaviga muvofiq o'z vakolatiga kiritilgan qarorlar qabul qilinishini tartibga soladi.

2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bankning yuqori boshqaruv organidir. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Bank Kuzatuv kengashi (keyingi o'rinlarda Kuzatuv kengash deb yuritiladi) raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Kuzatuv kengash a'zolaridan biri olib boradi. Bank har yili Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart.

3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlar hisoblanadi.

5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Kuzatuv kengash tomonidan belgilanadi.

6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida shaxsan ishtirok eta olmaydigan aksiyadorlar uchun o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish mumkin.

2-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasi

7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;



Bankni qayta tashkil etish;

Bankni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

Kuzatuv kengashning va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini tayinlash (saylash) va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Kuzatuv kengash a'zolariga haq to'lash;

e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;



Bankning ustav kapitalini kamaytirish;

o'z aksiyalarini olish;

Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

Bankning yillik hisobotini, shuningdek Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Bankni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

Bankning foydasi va zararlarini taqsimlash;

Kuzatuv kengashning o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashning hisobotlarini eshitish;

aksiyadorlar tomonidan Bank aksiyalarini va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni sotib olishda imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilish;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;

aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 8-bobida (Yirik bitimlar tuzish) va 9-bobida (Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish) nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

Kuzatuv kengashning vakolatidagi yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Kuzatuv kengashning yakdilligiga erishilmagan taqdirda ushbu yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

sanoq komissiyasining miqdor va shaxsiy tarkibini tasdiqlash;

dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risida qaror qabul qilish;


qonunchilik hujjatlariga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi mutlaq vakolatiga kiruvchi Bankning ichki meyoriy hujjatlarini tasdiqlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiritilgan yuqoridagi 7-bandda keltirilgan masalalar Kuzatuv kengash va Bank Boshqaruvi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiritilgan quyidagi masalalar Kuzatuv kengashga hal qilishi uchun berildi:

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Bank Ustaviga Bankning ustav kapitalini ko'paytirish hamda Bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;



“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Bankning Boshqaruvini tuzish, uning rahbarini uch yilga saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning Bank Boshqaruviga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

Bankning yillik biznes rejasini tasdiqlash.

3-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarorlari

9. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori, agar “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, Bankning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo‘lgan, yig‘ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko‘pchilik (oddiy ko‘pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish “Bankning ovoz beruvchi bitta aksiyasi – bitta ovoz” prinsipi bo‘yicha amalga oshiriladi, Kuzatuv kengash a‘zolarini saylash bo‘yicha kumulyativ ovoz berishni o‘tkazish hollari bundan mustasno.

10. Quyidagi masalalar bo‘yicha qarorlar Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan yig‘ilishda ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning to‘rtidan uch qismidan iborat ko‘pchilik (malakali ko‘pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi:

Bank Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

Bankni qayta tashkil etish;


Bankni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

e‘lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;

Kuzatuv kengashning o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashning hisobotlarini eshitish;

balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Kuzatuv kengashning vakolatidagi yirik bitim tuzish masalasi bo‘yicha



Kuzatuv kengashning yakdilligiga erishilmagan taqdirda ushbu yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qarorlar qabul qilish.

11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga va kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

12. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin 10 (O'n) kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham Umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda, biroq bu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

4-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi

13. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan aksiyadorlar reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

Barcha aksiyadorlarga, ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bir xil munosabat ta'minlanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etuvchi Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari o'zlari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi.


14. Aksiyadorning talabiga ko'ra aksiyadorga u Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan aksiyadorlar reyestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etiladi.

15. Umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatiga binoan qayd etish ro'yxati tuziladi. Qayd etish ro'yxati risola holiga keltirilgan, tartib raqami qo'yilgan, ip o'tkazib tikilgan va muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

16. Agar yig'ilish qatnashchisi bir yoki bir necha aksiyadorning manfaatlarini ifodalashga ishonchnoma taqdim etsa, u holda unga u ifodalayotgan aksiyador (aksiyadorlar) uchun ovoz berishga byulleten beriladi, qayd etish ro'yxatida esa u ifodalayotgan aksiyadorning familiyasi qarshisiga qayd etiladi hamda vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

5-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi axborot

17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>4-43</u>
	Sana: "Na" <u>24</u> "oktabr" 20 <u>25</u> yil

kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta (aksiyadorlarning elektron pochtasi mavjud bo'lgan hollarda) orqali yuboriladi.

18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatiladi:

Bankning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;

aksiyadorlar reyestri shakllantiriladigan sana;

umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar;

umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi;

umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi.

6-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga takliflar

19. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Bankning moliya yili tugaganidan keyin 30 (O'ttiz) kundan kechiktirmay Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Kuzatuv kengash va Taftish komissiya (Taftishchi)ga ushbu Kuzatuv kengashning va Taftish komissiya (Taftishchi)ning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan Kuzatuv kengashning mustaqil a'ziligiga nomzodlar ko'rsatish mustasno.

20. Aksiyadorlar (aksiyador) Kuzatuv kengash va Taftish komissiya (Taftishchi)ga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

21. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlar (aksiyador)ning ismi – sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

22. Kuzatuv kengash va Taftish komissiya (Taftishchi)ga nomzodlar ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatilgan taqdirda nomzodning ismi - sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod bank aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi - sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

23. Kuzatuv kengash tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda ushbu Nizomning 19 va 20-bandlarida belgilangan muddat tugaganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay ularni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish



to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart.

Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga, xuddi shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Kuzatuv kengash va Taftish komissiya (Taftishchi)ga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

ushbu Nizomning 19-bandida belgilangan muddatda aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan rioya etilmagan bo'lsa;

aksiyadorlar (aksiyador) Bankning ushbu Nizomning 19-bandida nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

ushbu Nizomning 21-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;

takliflar "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq bo'lmasa.

24. Kuzatuv kengashning masalani Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga yoki nomzodni Kuzatuv kengash va Taftishchiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlar (aksiyador)ga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

7-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

25. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda Kuzatuv kengash, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun 65 - moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda esa, umumiy yig'ilishni chaqiruvchi shaxslar quyidagilarni belgilaydi:

umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni;

umumiy yig'ilishning kun tartibini;

umumiy yig'ilish o'tkazish uchun bank aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sanani;

umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish tartibini;

umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxatini;


ovoz berish byulletenining shakli va matnini;

umumiy yig'ilishda ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi.

26. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

8-bob. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi

27. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Kuzatuv



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>IL-43</u>
	Sana: "№ 21" <u>oktabr</u> 2021 <u>yl</u>

kengashning qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, Taftish komissiya (Taftishchi)ning yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada ovoz beruvchi aksiyalarning kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar)ning yozma talabi asosida o'tkaziladi.

Shuningdek, qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq Markaziy bank Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishga va kun tartibini belgilashga haqli.

28. Taftish komissiya (Taftishchi)ning yoki ovoz beruvchi aksiyalarning kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar)ning yozma talabiga ko'ra Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Kuzatuv kengash tomonidan amalga oshiriladi.

29. Kuzatuv kengash Taftish komissiya (Taftishchi)ning yoki ovoz beruvchi aksiyalarning kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar)ning talabiga ko'ra chaqiriladigan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifi o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

30. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyador (aksiyadorlar)dan chiqqan taqdirda, bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar)ning ismi - sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

31. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.


32. Taftish komissiya (Taftishchi) yoki ovoz beruvchi aksiyalarning kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida Kuzatuv kengash Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

33. Taftish komissiya (Taftishchi)ning yoki ovoz beruvchi aksiyalarning kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar)ning talabiga ko'ra Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror qo'yidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) ovoz beruvchi aksiyalarning besh foizidan kam miqdorda egalik qilsa;

kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kirmasa;

kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq



openbook	Ro'yxatiga o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: 43
	Sana: "21" oktabr 2021 yil

bo'lmasa.

34. Kuzatuv kengashning Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori yig'ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

35. Kuzatuv kengash "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan muddat ichida Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan taqdirda yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday hollarda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarning o'zni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra Bankning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

9-bob. Sanoq komissiyasi

36. Ovozlarni sanab chiqish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Kuzatuv kengash tomonidan sanoq komissiyasi tuziladi, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

37. Sanoq komissiyasining tarkibi kamida uch kishidan iborat bo'ladi. Sanoq komissiyasi tarkibiga Kuzatuv kengash a'zolari, Taftish komissiya a'zolari (Taftishchi), Bank Boshqaruvi a'zolari, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emas.


38. Sanoq komissiyasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kvorum bor yoki yo'qligini aniqlaydi, umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarining aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi, ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi, ovozlarni sanab chiqadi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, ovoz berish byulletenlarini bankning arxiviga topshiradi.

10-bob. Aksiyadorlarning Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish tartibi

39. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi.

40. Aksiyador Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

41. Aksiyadorning vakili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir



ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim.

Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhir mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan holda beriladi.

11-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kvorumi

42. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

43. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

44. Aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.


45. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar qilish ushbu "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 62-moddasida nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

46. Kvorum bo'lmaganligi sababli Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.

12-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish, ovozlarni sanab chiqish va ovoz berish yakunlari bo'yicha bayonnoma tuzish tartibi

47. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish "Bankning ovoz beruvchi bitta aksiyasi - bitta ovoz" prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, Kuzatuv kengash a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

48. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali yoki



texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi.

Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni Kuzatuv kengash tomonidan tasdiqlanadi, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengash tomonidan chaqirilmagan hollar bundan mustasno.

49. Ovoz berish byulleteni umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

50. Ovoz berish byulletenida: Bankning to'liq firma nomi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi, vaqti va joyi, ovoz berishga qo'yilgan har bir masalaning ta'rif va uni ko'rib chiqish navbati, ovoz berishga qo'yilgan har bir masala bo'yicha "yoqlayman", "qarshiman" yoki "betarafman" degan mazmundagi so'zlar bilan ifodalangan ovoz berish variantlari ko'rsatiladi (bundan ovoz berishga qo'yilgan masalaga "yoqlayman" degan mazmundagi so'z bilan ifodalanadigan kumulyativ ovoz berish mustasno) va ovoz berish byulleteni aksiyador (uning vakili) tomonidan imzolanishi lozimligi to'g'risidagi ko'rsatma bo'ladi.

51. Kuzatuv kengash yoki Taftish komissiya a'zosini (Taftishchisini) saylash to'g'risidagi masala yuzasidan ovoz berish o'tkazilgan taqdirda, ovoz berish byulletenida nomzod to'g'risidagi ma'lumotlar, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berilganda ovoz berish byulletenlaridan foydalanilmaydi. Bunda ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorning qonuniyligi aksiyadorni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatga olishda foydalaniladigan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

52. Ovoz berilganida ovoz beruvchi qaysi masala bo'yicha ehtimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Mazkur talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

Ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan ushbu Nizomning 52-bandi birinchi qismida ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'lmaydi.

53. Ovoz berish yakunlari bo'yicha sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari to'g'risida sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnoma tuzadi. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'tkaziladigan umumiy yig'ilishining kvorumi mavjudligi haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

54. Ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzilganidan va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi imzolanganidan keyin ovoz

berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi hamda saqlab qo'yish uchun bankning arxiviga topshiriladi.

55. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi.

56. Ovoz berish yakunlari aksiyadorlarning ovoz berish o'tkazilgan umumiy yig'ilishida o'qib eshittiriladi, shuningdek Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin ovoz berish yakunlari to'g'risidagi hisobotni e'lon qilish orqali aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

13-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi

57. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

58. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasida:

umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarining umumiy soni;

umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarining soni;

umumiy yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

59. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatiladi.

14-bob. Yakuniy qoidalar

60. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari bajarilishi ustidan nazorat qilishni, bosharti yig'ilish qarorida o'zgacha hol qayd etilmagan bo'lsa va bayonnomada aks ettirilmagan bo'lsa, Kuzatuv kengash amalga oshiradi.


61. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan, shuningdek hozir bo'lmagan barcha aksiyadorlar tomonidan, ularga tegishli qismi bo'yicha bajarilishi majburiydir.

62. Mazkur Nizom talablariga rioya qilinmagan mas'ullar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

63. Ushbu Nizomga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

64. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

65. Ushbu Nizomning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>II-43</u>
	Sana: "№ 21" oktabr 2025 yil



YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“07” _____ 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomi (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi maqomini va faoliyat yuritishini, hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq o'z vakolatiga kiritilgan qarorlar qabul qilinishini tartibga solishini belgilaydi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishning qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning

Yuridik boshqarmasi boshlig'i

S.I. Salimov